

JO‘RA FOZIL IJODIDA XALQ MAQOLLARINING O‘RNI

Latipova Sayyora

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jo‘ra Fozilning “Tiramoh armonlari” romanida xalq so‘zlarining o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: avtobiografik roman, qissa, maqol, naql, ibora, yozuvchi mahorati.

Jo‘ra Fozil tabiatga mehr bilan qaraydigan, uni asrab-avaylashga harakat qiladigan adiblar sirasiga mansub. Biz bu ishimizda uning ijodida maqollarning o‘rni va ahamiyati haqida fikr yuritimiz. Bunda ayniqsa, ijodkorning Tiramoh armonlari romani e‘tiborga molik. Asarda o‘ndan ortiq xalq maqollari qo‘llangan. Son jihatidan ko‘p bo‘lmasa-da, lekin, xalqimizda ko‘p qo‘llaniladigan, teran ma‘no anglatadigan maqollar mavjud. Bu asar avtobiografik xarakterga ega bo‘lib, shu jihati bilan boshqa asarlardan farq qiladi.

Yozuvchi bu asarda o‘zining bolalik vaqtlaridan boshlab keksalik davrga qadam qo‘yguncha o‘tgan yillarini tasvirlagan.

Roman nosirning akasi Yahyo Abdulvahhob o‘g‘liga bag‘ishlangan. Yozuvchining e‘tirof etishicha, adibning hayotda o‘z o‘rnini topishida, mahoratli yozuvchi bo‘lishida akasining o‘rni, xizmatlari beqiyos bo‘lgan.

Dastavval, asarning sarlavhasiga e‘tibor beraylik. Buxoro shevalarining ayrimlarida kuz so‘zi tiramoh tarzida qo‘llanadi. "Tiyra- qora, moh-oy". Odatda inson umrining so‘nggi ya‘ni keksalik davri tabiatning go‘zal fasllaridan biri bo‘lmish kuzga qiyos etiladi.

Odamzodning umri poyoniga yeta boshlagani sayin, u ortda qolayotgan kunlariga nazar tashlar, xatolari, armonlari, erishgan yutuqlari va ulgurmay qolganlari haqida

o‘ylay boshlaydi. Bu asarda ham ko‘p o‘rinlarda adibning ruhiy holati, ichki kechinmalariga guvoh bo‘lamiz.

Romanni o‘qish jarayonida do‘stlar orasidagi sadoqat, xiyonat, yoshlikdagi sof sevgi va ayriliq azoblari, yetimlik, muhtojlik va buning natijasida oilaning darz ketishi, sarobga aylangan orzular, kasbga muhabbat kabi bir- biriga zid bo‘lgan voqea-hodisalarga guvoh bo‘lamiz.

Asarning bosh qahramoni - Jamol (yozuvchining o‘zi) oilada kenja farzand bo‘lishiga qaramay, ko‘p kitob o‘qiydigan, tirishqoq bola. Yosh bolaning kitobga bo‘lgan muhabbati oila a‘zolaridan meros bo‘lib qolgan. Chunki adibning otasi va akasi o‘qituvchilik kasbining mohir namoyondalari bo‘lishgan. Jamol kitobga mehr - muhabbat bilan qarayadigan, ilm olish har narsadan ustun qo‘yilgan oilada ulg‘aydi. Uydagi bunday muhit kitobsevar bolaning yaxshi yozuvchi bo‘lib yetishishiga poydevor vazifasini bajardi.

Hayot doim bir maromda o‘tavermasligi ayni haqiqat. O‘smir yigitning ham boshiga muhabbat, xiyonat, ayriliq kabi dunyo tashvishlari birin-ketin tusha boshladi. Jamol va qo‘shni qiz Muattar bir-birlariga ko‘ngil qo‘ydilar. Bu yoshlikdagi beg‘ubor , sof muhabbat edi. Yigit sevgisi, his-tuyg‘ularini bolalikdan birga ulg‘aygan do‘sti Hamidga aytardi.²¹ Jamolning tuyg‘ulari bilan yaqindan tanish bo‘lgan do‘sti - Hamid Muattarga ishqiy maktub yozadi. Yaqin do‘stining bu qilmishidan xabar topgan Jamol taqdirning beayov zarbalaridan biri-xiyonatga duch keldi. Yozuvchi shu o‘rinda: "Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga",□ degan xalq maqolini qo‘llab, asarning ta’sirchanligini yanada oshirdi. Xalq naqlari doimo insonlarni ogohlikka chaqirib, to‘g‘ri yo‘lga da’vat qilib kelgan. Do‘stga ishonib qolish oxirida afsuslanish bilan tugaydigan hodisalarga sabab bo‘ladi. Bu o‘rinda maqol Jamolning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qilgan. Xiyonatkor do‘st bu qilmishi bilan ham qanoat qilmay, Jamol harbiy xizmatdaligidan foydalanib, Muattarga do‘sti nomidan xat yozadi. Maktubni o‘qigan qiz noma o‘zi yoqtirgan insoni tomonidan yozilganligiga ishonadi va o‘z joniga qasd qiladi. Shu asnoda Jamol o‘z muhabbatidan bir umrga judo bo‘lib,

²¹ Jo‘ra Fozil. Yo‘lbarsdaraning so‘nggi sultoni : Roman, hikoyalar: - T.:□Sharq□,2015.-320 b.

taqdirning ayriliq nomli zarbasiga duch keldi. Bu paytda yigit harbiy xizmatda bo‘lib, bu fojiani safardan qaytgach eshitdi. Shunday sinovli kunlarda yosh o‘smirning yonida yondash, suyanchiq bo‘lib akasi yordamga keldi. Kamol tomonidan aytilgan: "Boshga tushganni ko‘z ko‘radi", □ maqoli juda o‘rinli qo‘llangan. Sababi, Jamol boshiga tushgan musibatlarga dosh bera olishi kerak edi.

Jo‘ra Fozil ikki yillik harbiy xizmat davomida ruslar bilan ham yaqindan tanish bo‘lgan, shu sababli bu romanning ba‘zi o‘rinlarida ruslarning xalq so‘zlaridan ham foydalangan. Askarlarning ochlikda yurgan holatlarini: "Ochlik - katta xolang emas", kabi o‘xshatish bilan izohlagan.

Asarning bosh qahramoni bo‘lmish Jamol oila qurish maqsadida yangasi aytgan qiz- Mamlakat bilan uchrashadi. Qiz nihoyatda chiroyli, shu bilan birga aqlli edi. Yigit bu go‘zalning yuvoshligiga shubha bilan qaraydi. Shu o‘rinda adibning maqol qo‘llash mahoratiga yana guvoh bo‘lamiz. "Sinalmagan otning sirtidan o‘tma", - bu xalq so‘zi Jamolning hayoliga kelgan fikr bo‘lib, bu maqol personajning individualligini ko‘rsatishga xizmat qilmoqda.

Tabiiyki, maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlarini mujassamlashgan bo‘ladi. Shu sababli maqollarni donishmandlar so‘zi deb ham atashadi.

Jamol uylanganidan so‘ng, shahardan qishloqqa kelin bo‘lib kelgan Mamlakatning ko‘ngliga tug‘ilib o‘sgan makonidan uy olib, oilasi bilan ko‘chib ketish niyati paydo bo‘la boshlaydi. Buni sezgan yigit: "Bo‘rini qancha boqsang ham, baribir o‘rmonga qochib ketadi", - degan rus maqolini eslaydi. Bu fikr o‘xshatishning go‘zal namumasi bo‘lib, asarning badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Maqol Mamlakatning holatiga to‘laqonli mos keladi.

Adibning "Tiramoh armonlari" romanida "Birodarlik □ barobarlik", "Baliq boshidan sasiydi", "Gap desa qop-qop, ish desa Ko‘hi qofdan top", "Gapga uchguncha to‘pga uch", "Och qoringa achchiq ayron", "Avval taom, bad‘az kalom" kabi ko‘plab xalq maqollarini va "Bir balosi bo‘lmasa shudgorda quyruq na qilur" kabi naqlini

uchratishimiz mumkin. Bu xalq soʻzlarining aksariyati anʼanaviy maqollar sirasiga kiradi va " Oʻzbek xalq maqollari" kitobiga kiritilgan.²²

Asarda qoʻllangan maqollar bir oʻrinda personajlar individualligini, boshqa oʻrinda esa roman badiiyligini oshirishga xizmat qilgan.

Ijodkorning soʻz qoʻllash mahoratini romanda qoʻllangan iboralar va oʻxshatishlarda ham koʻrishimiz mumkin. " Tanobini tortmoq" (23) ," Qovogʻidan qor yogʻdi" (134), "Dami ichiga tushdi"(156), "Tepsa tebranmas"(188),"Tishini kirini soʻrmoq"(216) kabi iboralar oʻzbek xalqida koʻp qoʻllaniladi.

Asarda dunyo- bozorga, tobut - toʻrt oyoqli chubin otga, gazli- oyogʻi kuygan tovuqqa oʻxshatilgan.

Joʻra Fozilning faqat "Tiramoh armonlari" romanida emas , balki koʻpgina asarlarida, xususan,"Oshiq Buxoriy qissalari" turkumiga kiruvchi qissalarda ham xalq maqollari, naqlar, iboralar qoʻllangan.

— Hamukka bergan soʻzingda sobit turaver.Ayturlarkim, "It tekkan bilan daryo harom boʻlmas...". Har biri pahlavonkelbat, koʻp jang koʻrgan dovyurak sarkardalar hozir gunoh ish qilgan bolalardek yer chizib oʻtirishibdi."Oq yogʻochning qayrilgani singani, er yigitning uyalgani oʻlgani", degani shu boʻlsa kerak. Ortda son jihatdan juda koʻp dushman,oldinda oyoq yetmas baland togʻlar."Osmon yiroq,yer qattiq..."²³Xalq soʻzlarining qoʻllanishi asarning taʼsirchanligini , badiiyligini oshirishga xizmat qiladi.

Romanni oʻqir ekanmiz, Joʻra Fozilning kasbiga nechogʻlik muhabbat bilan qarashini guvohi boʻlamiz. Mamlakat Jamolning kam maosh olishiga toqat qilolmay, shahardan ish topib, farzandlarini olib ketadi. Oilaga shu tariqa darz ketdi. Bu voqeadan soʻng ham Jamol oʻz kasbini davom ettiraverdi. U faqat haqiqatni qogʻozga tushirardi. Jamolning toʻgʻrisoʻzligi koʻpchilikka yoqmasdi. Hatto haqiqatgoʻyiligi ortidan muharrir Noʻmon akadan ham tanbeh eshitadi. Ammo Jamol oʻz kasbiga sadoqat bilan xizmat qilishda davom etadi.

²² Suvonqulova H. Oʻzbek xalq maqollari. Adabiyot uchqunlari, 2014. 152 b.

²³ Joʻra Fozil, "Oshiq Buxoriy qissalari".Toshkent: Yangi asr avlodi.2017.320 b.

Jo‘ra Fozil asarlaridagi qahramonlar odatda haqgo‘y, to‘g‘ri yo‘ldan yuradigan, mashaqqat bilan o‘z o‘rnini topa bilgan obrazlardir. Asarlardagi voqealarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, har bir kitobxon o‘zi uchun ibrat oladigan hodisalar mavjud. Adibning asarlarida qo‘llangan xalq maqollari esa insonlarni qadim zamonlardan beri haqlikka, to‘g‘ri yo‘ldan yurishga , ogohlikka da’vat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Fozilov J. Yo‘lbarsdaraning so‘nggi sultoni.-Toshkent: Sharq, 2015.- 320 b
2. Fozilov J. Oshiq Buxoriy qissalari.- : Buxoro nashriyoti, 2016 . □320 b.
3. Suvonqulova H. O‘zbek xalq maqollari. Adabiyot uchqunlari, 2014. □ 152 b.
4. www.kitobxon.com
5. www.arxiv.uz